

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABA QIZLARNI BOSHQARUV FAOLIYATIGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYALARI

¹Jamoldinova Odinaxon Rasulovna, ²Ablyakimova Refide Izmerovna

¹professor, A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
(ToshDO'TAU),

²katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti (JDPU)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14990005>

Annotatsiya. Maqolada pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarida yaxlit pedagogik jarayonda talabalarni bo'lajak mutaxassis sifatida kasbga tayyorlash bilan birga ularni tashkiliy-boshqaruv faoliyatiga tayyorlashning ilmiy-pedagogik jihatlari yoritilgan. Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat olib borayotgan ayol o'qituvchilarning rahbarlik lavozimlariga jalb etilishi tendensiyasining o'sib borishi kuzatilmoqda. Shu bois, oliy ta'lim muassasalarida talaba qizlarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda ta'limning samarali texnologiyalari, jumladan, ishbilarmonlik o'yinlarining ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: boshqaruv, kompetensiya, yaxlit pedagogik jarayon, maktab menejmenti, texnologiya, ishbilarmonlik o'yinlari.

Oliy ta'lim muassasasining o'quv-pedagogik jarayonlari bo'lajak malakali mutaxassislarni tayyorlash bilan bir qatorda ularda menejmentlik kompetensiyalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024/2025-o'quv yili boshiga faoliyat yuritayotgan 10 943 ta umumta'lim muassasalarida ta'lim berayotgan o'qituvchilar(o'rindoshlarsiz)ning umumiy soni 564,9 ming nafarni tashkil etgani holda, 2019/2020-o'quv yili boshiga nisbatan solishtirilganda 78,3 ming nafarga o'shib borayotganligi ham oliy ta'limda talabalarni tashkiliy-boshqaruv faoliyatiga tayyorlashning zaruratini belgilaydi [3]. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida rahbarlik lavozimlari (direktor, direktor o'rinbosari)da faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar ulushining o'shib borayotganligi oliy ta'lim muassasalarida talaba qizlarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash mexanizmlarini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Oliy ta'lim muassasasi (OTM)da o'quv jarayonlari ta'lim muassasasi ma'muriyati, professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi ko'p tomonlama o'zaro munosabatlar majmuasidan iborat bo'lib, oliy ta'lim muassasasi ma'muriyati talabalar faoliyatiga tashkiliy-boshqaruv nuqtai nazaridan ta'sir ko'rsatsa, professor-o'qituvchilar talabalarning kasbiy hamda ijtimoiy-psixologik kamolotida muhim o'rin tutatdi. OTM ma'muriyati, professor-o'qituvchilar hamda talabalar o'rtasidagi munosabatlar talabalarning kasbiy, boshqaruv hamda ijtimoiy kompetensiyasi shakllanishida muhim o'rin tutadi. Oliy ta'lim muassasalarida talaba qizlarni rahbarlik lavozimlari tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari ijtimoiy-psixologik, metodik hamda tashkiliy-boshqaruv sohasini takomillashtirishni taqozo etadi. Talaba qizlarni boshqaruv lavozimlariga tayyorlashda uch xil yondashuvga tayaniladi:

1. Ma'muriy yondashuv. Oliy ta'lim muassasasi ma'muriyati gender tengligi borasida davlat siyosatini OTM hududida amaliyotga tatbiq etishi hamda resurslar taqsimoti masalasida zaruriy normativ hujjatlarni ishlab chiqqan holda gender tengligini ta'minlashi lozim. Bunda turli vositalar orqali talaba qizlarning muammolarini tinglash hamda xodimlarni ishga olish, rahbar

lavozimga ayol pedagoglarni tayinlash orqali OTM boshqaruvida xotin-qizlarning oʻrni va mavqeini oshirish.

2. Metodologik yondashuv. Professor-oʻqituvchilar talaba qizlarga bilim berishda zamonaviy metodlardan foydalanishi, ularda zaruriy kasbiy, amaliy, qattiq hamda yumshoq koʻnikmalarni shakllantirishi talab etiladi.

3. Texnologik yondashuv. Texnologik yondashuv talabalar oʻzlashtirishini yaxshilash, taʼlim sifatini oshirish faoliyatiga axborot texnologiyalarini jalb etish orqali talaba qizlarda raqamli savodxonlik, media savodxonlik, texnik savodxonlik kabi koʻnikmalarning shakllanishi bilan chambarchas bogʻliq.

Shu bois, oliy taʼlim muassasalarida talaba qizlarni boshqaruv faoliyatga tayyorlash, ularda boshqaruvchanlik kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan tajriba-sinov ishlarini “Maktab menejmenti” bakalavr yoʻnalishi misolida koʻrib chiqdik. “Maktab menejmenti” bakalavr yoʻnalishi malaka talablarida boʻlajak pedagoglarda boshqaruvchanlik kompetensiyalarni rivojlantirish, bevosita taʼlim tuzilmalari uchun rahbar kadrlar tayyorlashga qaratilgan boʻlib, ularni oʻqituvchilik faoliyatiga tayyorlash bilan bir qatorda pedagogik mahorat, nutq madaniyati, boshqaruvchanlik kompetensiyalarini shakllantirish oʻquv dasturi mazmuniga singdirilgan.

Boʻlajak pedagoglarni umumiy oʻrta taʼlim maktablarini boshqarish, taʼlim menejerligi va pedagogik faoliyat, taʼlim sifatini nazorat qilish, xalqaro baholash dasturlari, taʼlimda innovasiyalarni boshqarish, taym menejment faoliyatiga oid kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish nazarda tutiladi. Bakalavrlar kasbiy faoliyatining obyektlari sifatida umumiy oʻrta taʼlim, maktabdan tashqari taʼlim, taʼlim jarayonlarini tashkil etish va boshqarish, taʼlim sifatini boshqarish, xalqaro baholash dasturlarini tatbiq etish jarayonlarda faoliyat olib borishi uchun tayyorlanadi. Bunda:

taʼlim tizimi muassasalari faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy pedagogik, axborot texnologiyalar va iqtisodiy bilimlarni qoʻllash orqali boshqarish;

taʼlim muassasalar va ularning alohida boʻlinmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish, ilmiy va pedagogik salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni ragʻbatlantirish tizimni yoʻlga qoʻyish;

taʼlim xizmatlari va boshqaruvi faoliyati boʻyicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;

kasbga oid pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalangan holda taʼlim jarayonlari diagnostikasi, monitoringi va taʼlim sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish, menejer ijodiy kuchlarining namoyon bulishi imkonini beruvchi boshqaruv shakli va uslublariga maqbul boʻlishi;

taʼlim muassasalarida menejment va iqtisodga oid fanlardan oʻrnatilgan tartibda dars mashgʻulotlarini olib borish, fanlar yoʻnalishida oʻquv dasturlari, oʻqitishning innovasion texnologiyalari va metodlari, baholash mezonlari, taʼlim mazmunini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish;

pedagogik jamoani oʻquv-tarbiya faoliyatini rejalashtirishda moddiy xarajatlar masalalarini ularning maksimal samaradorligi asosida hal qilishda iqtisodiy dastaklarni ishga solish;

boshqaruvchi boshqaruv tizimi samaradorlik darajasini ruyobga chiqarishda oʻzgarayotgan vaziyatlarga oʻz vaqtida munosabat bildirib borish;

boshqarishda jamiyat rivojining obyektiv qonunlarini bilish, yangi hodisalarni umumlashtirish, ishdagi ilg‘or yo‘nalishlarni hisobga olish va ularni integrallashtirib borish;

rahbarlar va pedagogik xodimlarning xatti-harakatlari, faoliyat uslublarini innovasion goyalar bilan boyitib borish;

kommunikativ, kompetentlilik hisoblangan, turli sharoitlarda hamkorlik ko‘rsatish faoliyatini ilmiy-metodik asoslarda tashkil etish va boshqarish yo‘nalishiga innovasion g‘oyalarni kiritish;

ta‘lim jarayonlarini tashkil etishda innovasion boshqarishni sifat va samaradorligini oshirishga tizimli, vaziyatli, korporativ, blok modulli, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim yondashuvlarini tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantirish nazarda tutiladi.

Pedagogik yo‘nalishdagi OTM talaba qizlarining boshqaruvchanlik kompetensiyasini egallaganlik darajasini tahlil qilish maqsadida o‘tkazilgan so‘rovnoma rahbar ayollar qanday kompetensiyalarga ega bulishi kerak, degan savolga respondentlarning 37% liderlik va boshqaruv qobiliyatlari, 25% kommunikasiya va muloqot qobiliyatlari, 11% professionallik va bilim, 14% shaxsiy fazilatlar, 9% ijodiy va innovasion fikrlash, 5% muvaffaqiyatli jamoani yaratish ko‘nikmalari shakllangan bo‘lishi kerakligini ta’kidlagan. Shuningdek, rahbar ayollarda samarali boshqaruv, muloqot, professional bilim, shaxsiy madaniyat va ijodkorlik qobiliyatlarining shakllantirishini muhim deb hisoblagan.

Xotin-qizlarda boshqaruvchanlik kompetensiyalarini shakllantirish uchun 37% javoblarda xotin-qizlar uchun ish joylarida rahbarlik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan imkoniyatlar yaratish va qo‘llab-quvvatlash, 48%ida motivasiya va rag‘batlantirish, xotin-qizlarning liderlik qobiliyatlarini rag‘batlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqish zarurligi, xotin-qizlarni rahbarlik lavozimlarida yuqorilashi uchun to‘sqinlik qiluvchi omillarni bartaraf etish, amaliyot va tajriba almashish, xalqaro tajribani o‘rganish, innovasion boshqaruv va raqamli texnologiyalarni boshqarishni bilish muhimligi ta’kidlanadi.

Talaba qizlar kelajakda zamonaviy rahbar sifatida o‘zlarida quyidagi boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish istagini bildirgan: 17% strategik fikrlash va rejalashtirish, 21% jamoa boshqaruvi va yetakchilik, 12% kommunikasiya va aloqa o‘rnatish, 11% vaqt menejmentini samarali tashkil etish, 4,6% innovasion yondashuv va texnologiyalardan foydalanish, 14% shaxsiy sifatlarni rivojlantirish, 8% insonparvarlik, 12% qaror qabul qilishda qat’iyat va shijoat, tezkor va qat’iy qarorlar qabul qilish qobiliyati kabilar. Respondentlar kelajakda o‘zlarini zamonaviy lider sifatida shakllantirish uchun strategik fikrlash, jamoa boshqaruvi, kommunikasiya, innovasion yondashuv, shaxsiy sifatlarni va qat’iy qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish muhimligini ta’kidlagan.

Oliy ta‘lim muassasalarida yaxlit pedagogik jarayonda bo‘lajak ta‘lim menejeri sifatida talaba qizlarni boshqaruvchanlik faoliyatiga tayyorlashda ishbilarmonlik o‘yinlarining samaradorligi o‘rganildi.

Ishbilarmonlik o‘yinlari (Business simulations) – tajribaga asoslangan o‘qitish metodlaridan biri bo‘lib, real hayotdagi ishbilarmonlik ssenariylarini dars jarayoniga nisbatan tatbiq etishni nazarda tutadi. Ishbilarmonlik o‘yinlari talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda kuchli vosita hisoblanadi.

Ishbilarmonlik o‘yinida talaba o‘zida o‘quv va kasbiy elementlarni uyg‘unlashtirgan o‘xshash kasbiy faoliyat bajaradi. Bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirilishi abstrakt darajada emas, balki kasbiy mehnat kontekstida (ma’nosida) amalga oshadi. Kontekstli o‘qitishda bilimlar kelajak uchun bekorga emas, balki o‘quvchining real o‘yin jarayonidagi harakatini ta’minlaydi. Bir vaqtning o‘zida, o‘quvchi kasbiy bilimlar bir bir qatorda maxsus xislatga ega odamlar bilan muloqotda bo‘lish va boshqarish, jamoaviy qarorlar qabul qilish malakalari, rahbarlik qilish va bo‘ysunish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi [7].

Ishbilarmonlik o‘yinlarini tashkil etishda bir qator pedagogik talablarga amal qilish talab etiladi. Jumladan,

- real hayotdagi ishbilarmonlik muammolariga asoslangan bo‘lishi;
- dars maqsadini o‘zida aks ettirishi;
- rollarni bajarish orqali o‘rganish tamoyiliga amal qilishi;
- o‘yin ishtirokchilarining har biri bir biridan farqli rolni bajarishi lozim [4].

Umumiy o‘rta ta’lim maktabining oliy organi - Pedagogik kengash faoliyatini ishbilarmonlik o‘yini sifatida tashkil etishda talabalar rollarni ixtiyoriy ravishda taqsimlaydilar. Pedagogik kengashda ko‘riladigan dolzarb masalalar kun tartibiga kiriladi. Talabalar belgilangan rollarni bajarishga tayyorlanish davomida umumiy o‘rta ta’lim maktabida faoliyat olib borayotgan rahbar va rahbar o‘rinbosarlari funksiyasini yaqindan o‘rganadi. Kun tartibiga kiritilgan masala yuzasidan ma’lumot tayyorlash ko‘nikmasi shakllanadi.

Ishbilarmonlik o‘yinlarida talabalar nafaqat natijadan, balki jarayondan zavqlanadi, ularda kommunikativlik, tezkorlik, har tomolama puxta o‘ylangan qarorlarni qabul qilish, rahbar sifatida o‘zini namoyon etish, nutqi ustida ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi, shaxsiy va kasbiy sifatlar tarbiyalanadi. Xulosa sifatida aytib o‘tish mumkinki, oliy ta’limda talaba qizlarni rahbarlik lavozimiga tayyorlash oliy ta’lim muassasasining o‘zaro boshqaruv-tashkiliy, ijtimoiy psixologik hamda metodik jihatdan murakkab pedagogik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonga har tomonlama, tizimli yondashish talaba qizlarni rahbarlikka tayyorlash faoliyatini rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бабина О.И. Деловые имитационные игры как эффективный метод обучения. [Russian journal of management Том 5 № 2 , 2017](#)
2. Болтаева, М. Л. Деловая игра в обучении. — Молодой ученый. — 2012. — № 2 (37). — С. 252-254. — URL: <https://moluch.ru/archive/37/4267/> (дата обращения: 24.02.2025).
3. <https://yuz.uz/news/maktablarda-dars-berayotgan-oqituvchilarning-soni-qanchaga-oshgani-aytildi>.
1. Мусаева Н. Таълим жараёнида ишбилармонлик ўйинларининг роли. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/iqtisodiyot/ishbilarmonlik-yinlari-tehnologiyasi>.
2. Dai, Z., Yang, Y., Chen, Z. *et al.* The role of project-based learning with activity theory in teaching effectiveness: Evidence from the internet of things course. *Educ Inf Technol* (2024). <https://doi.org/10.1007/s10639-024-12965-9>
3. [Gender differences in the classroom | Educational Psychology \(lumenlearning.com\)](#) <https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2022.e12657>
4. [What is a Business Simulation? - Celemi.](#)